



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30601/2414-1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 12.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Abduvohidova Oygul Ma'sudbek qizi

Andijon davlat pedagogika universiteti

Uzbekistan

abduvohidovaoygul747@gmail.com

QIZIL SUVO‘TLARINING TABIATDAGI O‘RNI, TARQALISHI, KO‘PAYISHINI VA AHAMIYATI

Abstract: This thesis provides information about "The role of red algae in nature, their distribution, reproduction, and importance".

Keywords: Rhodophyta, chloroplast, Gracilariales, Gigartinales, Bangiales, Florideophyceae.

Annotatsiya: Men ushbu tezisdagi „Qizil suvo‘tlarining tabiatdagi o‘rni tarqalishi, ko‘payishi va ahamiyati“ haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Rhodophyta, xloroplast, gracilariles, gigrtinales, bangiales, florideophyceae.

Аннотация: В данном тезисе представлены сведения о «Роли красных водорослей в природе, их распространении, размножении и значении».

Ключевые слова: Rhodophyta, хлоропласт, грацилиалес, гигантальные, бангиальные, флоридеифицея.

Language: Uzbek

Citation: Abduvohidova , O. (2024). THE PLACE, DISTRIBUTION, REPRODUCTION AND SIGNIFICANCE OF RED ALGAE IN NATURE. Universal International Scientific Journal, 1(9), 92–94. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1220>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14446616>

Qiz suvo‘tlari — Bir hujayrali, koloniya hosil qilgan va ko‘p hujayrali organizmlar bo‘lib tallomli kokkoid, ip, geterotrixial psevdoparenximatoz va parenxima tuzulishli. Hayotiy davrida xivchinli bosqich hosil qilmaydi. Xloroplastlarini po‘sti qo‘sh membranali, xloroplastga xos endoplazmatik to‘r yo‘q. Tilakoidlari bittadan. Xloroplastdagi DNK xloroplast stromasi bo‘ylab tarqalgan kichik nukleotidlar holida. Xlorofillardan faqat xlorofill a bor. Qo‘shimcha fikoeitritin va allofikotsianin, fikotsianin pigmentlar fikobilisomalarda jamlangan, turli karotinooidlar bor. Asosiy g‘amlangan mahsulot - "bagryanka" kraxmalisitoplazmada to‘planadi. Mitoxondriylar yassilangan kristli. Mitoz yarimyopiq ro‘y beradi sentrolasiz. Hujayrasining devori ko‘p hollardasellyulozali va pektin moddalar - agar, karraginan, agarozadan iborat. Hujayralararo tirqishlar bor. Hayotiy davri gaplo-diplobion tarzda ro‘y beradi undan ikkitasi diploidli. Asosan dengizlarda birikib tarqalgan, qisman chuchuk suvlarda ham uchraydi. Qizil suvo‘tlarning ko‘pchiligi ko‘p hujayrali murakkab tuzilishli organizmlar. Ayrimlarga eng sodda

tuzilganlari bir hujayrali yoki koloniya hosil qilgan tallomlilar. Bargryankalarning tanasini shakli juda hilma-hil: ipsimon (soch tolasi kabi), yaxlit yassiyaproq yoki murakkab tarzda bo‘laklarga bo‘lingan, qirrasini bcfvlab joylashgan o‘simtali, silindr (tig' iz yoki g‘ovak), quyqasimon, korallsimon ko‘rinishlarga ega. Qizil suvo‘tlarining ko‘pchiligi psevdoparenximatoz tuzilishli. Xloroplastlar qizil suvo‘tlarda turlicha shakllarga ega. Ko‘pchiligida ular sitoplazmaning chekkasi bo‘ylab parital joylashgan. Plastidlami shakli disk yoki tasmaga o‘xshash. Bir necha turkumlarida xloroplastlar yulduzcha shaklida, ular hujayraning o‘rtasidan o‘zgarishi mumkin. Har bir xloroplast o‘zining hususiy ikki qavat membranasi bilan o‘ralgan. Tilakoidlar glaukotsistofitlardagi kabi bittadan teng masofada joylashgan, to‘plam hosil qilmaydi. Xlorofillardan qizil suvo‘tlarning plastidlarida xlorofill a mavjud holos, u qo‘shimcha pigmentlar-qizil fikoeitritin, ko‘k fikotsianin va allofikotsianin bilan qoplangan. Bu fikobilinlar tilakoidlar yuzasidagi yarimsferik, yarimdisk fikobilisomalarda

joylashgan. Fikoeritrin qizil suvo'tlarda xech bo'lmaganda 5 ko'rinishda (v-fikoeritrin I va II, R-fikoeritrin I, II va I I I) bo'lib ular yorug'likni yutish bilan farqlanadi. Barcha besh tip qizil suvo'tlarning turli guruhlarida turlicha miqdorda tarqalgan. Fikotsianin R-va Cfilcotsianinlar holida bo'ladi.

Qizil suvo'tlarning hujayralari selluloza va agar-agar (agar) kabi polysakaridlardan tashkil topgan qattiq hujayra devorlariga ega. Agar-agar, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida qo'llaniladi. Qizil suvo'tlar butun dunyo bo'ylab, sahro va tropik lautlar, shuningdek, muzli suvlar kabi turli muhitlarda qirqmillik sharoitda, masalan, daryo va ko'llarda tarqalgan. Qizil suvo'tlar ko'plab dengiz hayvonlari, ayniqsa baliqlar va mollyuskalar uchun asosiy oziqlanish manbai hisoblanadi.

Qizil suvo'tlar juda ko'p qabilalarga ajralgan ulardan bir nechtasi quyidagilar:
Florideophyceae—Bu qabila qizil suvo'tlar

bo'limining eng katta qismidir va ko'plab mashhur turlarga ega. Ular odatda dengizda va sho'r suvda o'sadi. Florideophyceae a'zolari asosan ko'p bosqichli hayot siklini o'tkazadi va fikoeritrin pigmenti bilan qizil rangga ega.

Bangiales—Ushbu qabilaga Bangia va Porphyra kabi turli o'tlar kiradi. Bu turlar ko'pincha xalqaro oshxona va oziq-ovqat mahsuloti sifatida mashhur. Ular odatda qisqa va ingichka ko'k poyalar bilan ajralib turadi.

Gigartinales—Ushbu qabilada Gigartina, Mazzaella, va boshqa turli xil qizil suvo'tlar mavjud. Ular ko'pincha oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadi. Shuningdek, ularning polisaxaridlari agar va boshqa mexanik qurilish materiallari sifatida foydalidir.

Gracilariales—Bu qabilada Gracilaria va Gelidium kabi muhim turlar mavjud, ular asosan agar olish uchun o'stiriladi. Ular ko'plab sanoat va oziq-ovqat tarmoqlarida ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. BOTANIKA:TUBAN O'SIMLIKLAR Sh.TOJIBOYEV, N.NARALIEVA Namangan nashriyot—2016
2. Muzaffarov A. M. Algologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2005.
3. Lobban C. S., Harrison P. J. The Biology of Seaweeds. University of California Press, 1994.
4. Rasulov G. D. O'simliklar ekologiyasi. Toshkent, 2010.